

ZAMONAVIY O'ZBEK ESTRADA SAN'ATI**Baxtiyarov Iskandar Baxtiyarovich**

O'zbekiston davlat konservatoriyasi huzuridagi
Botir Zokirov nomidagi Milliy estrada
san'ati instituti "Xalqaro hamkorlik bo'limi" uslubchisi
<https://doi.org/10.5281/zenodo.16734663>

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy o'zbek estrada san'atining rivojlanish bosqichlari va o'ziga xos xususiyatlari yoritiladi. Unda zamonaviy estrada san'atining ilk namunalari, mustaqillikdan keyingi erkin rivojlanish jarayoni haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: o'zbek estrada san'ati, musiqa tarixi, zamonaviy estrada, mustaqillik davri, milliy madaniyat, estrada rivojlanishi.

Аннотация: В данной статье рассматриваются этапы развития современного узбекского эстрадного искусства и его особенности. В ней говорится о первых образцах современного эстрадного искусства, а также о процессе свободного развития после независимости.

Ключевые слова: узбекская эстрадная музыка, история музыки, современная эстрада, период независимости, национальная культура, развитие эстрады.

Annotation: This article discusses the stages of development and unique characteristics of modern Uzbek pop art. It addresses the early examples of modern pop art and the process of free development after independence.

Keywords: Uzbek pop music, music history, contemporary pop, independence period, national culture, development of pop.

O'zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishganiga chorak asrdan ziyod vaqt o'tdi. Ushbu davr mobaynida mamlakatimizda turli sohalarda tub islohotlar amalga oshirilib, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotda sezilarli yutuqlarga erishilmoqda. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev 2017-yilda madaniyat va san'at sohasi rahbarlari bilan bo'lib o'tgan uchrashuvda quyidagi fikrlarni bildirgan edi: "Bir haqiqatni hech qachon esimizdan chiqarmasligimiz kerak: mamlakatimizda madaniyat va san'at taraqqiy etmasa, jamiyat rivojlanmaydi. Xalqimizning rivojlanish darajasi avvalo milliy madaniyatimizga qarab baholanadi. Shu ma'noda, madaniyat — bu xalqimiz, jamiyatimiz qiyofasidir. Biz O'zbekistonning yangi qiyofasini yaratishga kirishgan ekanmiz, buni avvalo milliy madaniyatimizni rivojlantirishdan boshlashimiz lozim". Ushbu fikrlar, albatta, madaniyat va san'at sohasining jamiyat taraqqiyotidagi o'rni va ahamiyatini chuqur anglatadi. Har bir xalqning madaniyati, avvalo, uning san'atida namoyon bo'ladi. O'zbek xalqi

qadimdan musiqa va sahna san'atiga alohida e'tibor bergan. O'zbekiston madaniy hayoti o'ziga xos va boy bo'lgan an'anaviy san'at turiga ega. Xususan, musiqa san'ati xalqimizning ruhiy olami, didi va ma'naviyatining ajralmas qismidir. Zamonaviy estrada san'ati esa shu boy meros asosida shakllangan, o'zbek xalqining turmush tarzi, orzu-umidlari va hissiyotlarini aks ettiruvchi muhim madaniy hodisa hisoblanadi.

O'zbekiston musiqa sahnasi hozirgi kunda Yevropa va Sharq madaniyatining zamonaviy yo'nalishlari an'analarini o'zida mujassam etgan o'ziga xos hodisa hisoblanadi. O'zbekistonning zamonaviy musiqa sahnasining milliy qiyofasini shakllantirishda xalq og'zaki ijodining an'anaviy shakl va janrlari muhim rol o'ynadi, ularning o'ziga xos xususiyatlari XX asrning ikkinchi yarmi musiqa hayotida yangi hodisaga asos bo'ldi. Mamlakatimizda milliy estradani rivojlantirishga barcha imkoniyat va sharoitlar yaratilayotgan ekan, shu sohadagi barcha ijodkorlardan xalqimizga manzur bo'ladigan yangi badiiy barkamol qo'shiq va kuylar yaratib, faol ijod qilishlarini kutib qolamiz. O'zbek milliy estrada san'ati boy tarixga ega. "Estrada" tushunchasi kirib kelgunga qadar ham uning turli janr va ko'rinishlari mavjud bo'lib, professional darajada XX asrda shakllangan.

Jumladan, O'zbekiston xalq artisti Tamaraxonim, Usta Olim Komilov kabi san'atkorlar milliy estradaning poydevoriga asos solgan. O'zbekiston xalq artisti Botir Zokirov professional estrada san'ati maktabini yaratgan. Mashhur "Yalla" guruhi, Yunus To'raev, Mansur Toshmatov, Nasiba Abdullaeva, Yulduz Usmonova, Kumush Razzaqova, Ozodbek Nazarbekov, Kozim Qayumov kabi ijodkorlar bevosita Botir Zokirov yaratgan milliy estrada maktabi davomchilari bo'lib, uning rivojiga munosib hissa qo'shishgan.

O'zbek estrada musiqasi shakllanishi jarayonida an'anaviy xalq musiqa namunalari muhim zamin bo'lgan. Bunda, asosan, ularning raqsboqli, yengil ohang usullarida ijro etilgani qo'l kelgan. Ayni payta bu holat o'zbek estrada musiqasining milliylik asosini ham ta'minlovchi muhim vositalardan biri bo'ldi desak, to'g'ri bo'ladi.

O'zbek milliy estrada qo'shiqchiligi tamal toshini qo'ygan Botir Zokirov va uning izdoshlari, zamondoshlari Yunus To'rayev, Staxan Rahimov, va boshqalar o'zbek estradasi sahnasida milily kuylash uslubini sintezlashtirish natijasida uni shaklan va mazmunan uyg'unlashtirishga erishganlar. O'zbekiston mustaqillikka erishgach, mamlakat madaniy hayotida keng ko'lamli o'zgarishlar yuz berdi. Ayniqsa, san'at sohasida xususan, estrada yo'nalishida — yangi sahifalar ochildi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgan darvdan boshlab yaratilayotgan qo'shiqlar Vatan, Istiqlol, tabiat, do'stlik va muhabbat kabi mavzularda yozilgan. Yulduz Usmonovning "Dunyo", "O'zbekiston", "Xalqim", Nilufar Rahmatovanning "O'zbek elim", marhum Nuriddin Haydarovning "Men nechun sevaman O'zbekistonni?", Sevara Nazarxoning "Vatanim", Gulsanam Mamazoitovanning "O'zbekiston-ona tuproq" kabi qo'shiqlari, mustaqillik davrining o'ziga xos, yangicha talqindagi vatanparvarlik mavzusini barpo qildi. Bu mavzu san'atda eng qadimdan ulug'lanib kelgan. Hozirgi kunda O'zbekistonda nafaqat tub siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy o'zgarishlar, balki san'at, madaniyat va jamoatchilik ongida ham jiddiy o'zgarishlar yuz bermoqda. Hozirgi vaqtda o'zbek badiiy madaniyatida estrada musiqasi alohida o'ringa ega. Hozirgi kunda estrada mafkura o'rnini ma'lum darajada egallab, yoshlar ongiga ta'sir o'tkazishning samarali usuliga aylandi. Oxirgi o'n yilliklarda tadqiqotchilar va olimlar tomonidan san'atning ushbu turiga, estrada musiqasining shakllanish tarixi, kelib chiqishi, terminologik va nazariy masalalariga qiziqish ortdi, uning o'zbek va jahon badiiy madaniyatida, umuman madaniyat va san'atdagi o'rni va rolini aniqlashga harakat qilmoqda. 80-90 yillar estradasining hozirgi zamonaviy estradadan farqi undagi tafovut shundan iboratki ilk estrada namoyondalari qo'shiqlarining milliyligiga sermazmunligiga, orombaxsh ekanligiga alohida e'tibor qaratgan. Zero, san'atning har qanday jabhasi inson tafakkuri mahsuli sifatida tinimsiz harakat va o'zgarishlarga uchraydi. Unga zamon va makon o'z ta'sirini ko'rsatar ekan o'z o'rnida Estrada ijrochiligi ham yoshlarimizning qolaversa jamiyat hayotining in'ikosi bo'lib qolaveradi.

Bugungi kunda estrada san'ati zamonaviy o'zbek yoshlarining dunyoqarashi, estetikasi va madaniy ehtiyojlarini aks ettiruvchi asosiy vositalardan biridir. Hozirgi globalashuv davrida, axborot oqimi cheksiz bo'lib borayotgan bir vaqtda, yoshlarni milliy qadriyatlarga asoslangan madaniy-ma'naviy tarbiya bilan qurollantirish g'oyat dolzarbdir. Estrada san'ati, bir tomondan, zamonaviylikka hamohang bo'lsa, ikkinchi tomondan, insonlarni badiiy-estetik qadriyatlar bilan boyituvchi vosita hisoblanadi. Uning musiqiy ohanglari, ijodiy asarlari va mazmunan boy kompozitsiyalari yoshlarning qalbida ijodkorlik uchqunini uyg'otadi.

XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab xalq orasida «estrada», «estrada konsterti», «estrada san'ati» kabi atamalar iste'molga kirib kela boshladi. Bu Turkiston o'lkasining shaharlariga Rossiyadan gastrolga kelgan konstert guruhlarining chiqishlari bilan bog'liq edi.



XXI asrda O'zbekistonda Estrada san'atini rivojlantirish bo'yicha ko'plab ishlar amalga oshirildi. Estrada rivojiga katta hissa qo'shgan san'at hodimlari davlat mukofotlari bilan taqdirlandi. Bugungi estrada texnologiyalarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Bugungi estrada san'atining rivojlanishida internet va axborot texnologiyalari muhim rol o'ynamoqda. YouTube, TikTok, Instagram kabi platformalar orqali qo'shiqlar butun dunyo bo'ylab tarqalmoqda. Afsuski, ba'zi estrada xonandalari orasida fonogrammadan foydalanish, sifatsiz matnlar, shov-shuvli mavzularga yo'naltirilgan ijodiy ishlanmalar ham uchramoqda. Bu holat estrada san'atining tarbiyaviy va estetik ahamiyatiga putur yetkazadi. Estrada ijodkorlari faqatgina ovoz orqali emas, balki videokliplar yordamida ham tomoshabin e'tiborini tortmoqda. Bu esa estrada san'atining ommalashuvi va global maydonga chiqishiga xizmat qilmoqda. Shuningdek, ayrim qo'shiqlarda milliylikdan uzoqlashish holatlari ham kuzatilmoqda va zamonaviy kliplar, professional studiya yozuvlari va sahna texnikasi san'atning sifat jihatdan yuksalishiga xizmat qilmoqda.

Xulosa: Zamonaviy O'zbek estrada san'ati mustaqillik yillarida jadal rivojlanib, milliy qadriyatlar va zamonaviy musiqiy yo'nalishlarning uyg'unligiga asoslangan holda shakllandi. Bugungi estrada san'ati nafaqat xalqimizning madaniy hayotida, balki yosh avlodning ma'naviy tarbiyasida ham muhim rol o'ynamoqda. Kelajakda estrada san'atini yanada rivojlantirish uchun iste'dodli yoshlarni qo'llab-quvvatlash, sifatli musiqiy asarlar yaratishga e'tibor qaratish muhimdir. Umuman olganda, zamonaviy O'zbek estrada san'ati xalqimizning ma'naviy dunyosini boyituvchi, uni ruhlantiruvchi va birlashtiruvchi kuchli madaniy vositadir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Prezident Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvdagi maruzasi. Toshkent 2017-yil 3-avgust.
2. Namozova, D. T. (2021). Musiqa darslarida o'quvchilarni kreativlik hamda erkin tafakkurni shakllantirish tashkil etish.2(2),1313-1315
3. Y.Torayev «O'zbek Estrada xonandaligi» Toshkent 2004-yil
4. "O'zbek estradasining poydevori qurgan, qo'shiqchilimizga yangi havo olib kirgan ijodkor". – Maqola, Sug'diyona gazetasi.
5. N.Abdullaev "O'zbekiston san'ati tarixi" Toshkent 2007.

